

IJTIMOIY PEDAGOG FAOLIYATI MODELI

*Choriyeva Durdona Anvarovna Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti “Maktabgacha ta’lim” fakulteti Maktabgacha ta’lim psixologiyasi va pedagogikasi kafedrasini dotsenti,
Shodiyeva Mashhura Eshmamat qizi “Maktabgacha ta’lim psixologiyasi va pedagogikasi” yo’nalishining 4 kurs talabasi*

Pedagogik faoliyat - ta’lim va tarbiya orqali ijtimoiy-madaniy tajribani berishga yo’naltirilgan kasbiy faoliyat turidir. Bu faoliyat ta’lim standartlari, o’quv rejalarini, dasturlarini bilan belgilanadi.

Ijtimoiy pedagogik faoliyat-bolaga ijtimoiylashuvi jarayonida (bolaning jamiyatga kirishi) yordam ko’rsatishga qaratilgan kasbiy faoliyat turidir. Bola bilan ish olib borishi mumkin bo’lgan turli xil ta’lim muassasalari, tashkilotlari, birlashmalari o’z ishlarini ijtimoiy pedagoglar orqali amalga oshiradilar.

Ijtimoiy pedagogik faoliyat har doim aniq bir bolaga va uning ijtimoilashuviga, uni jamiyatga integratsiyalash jarayonida yuzaga keladigan muamolarini hal etishga yo’naltirilgan bo’ladi.

Kasbiy faoliyat tuzilmasi — har qanday faoliyat o’z tuzilmasiga egadir. Ular faoliyat elementlarining o’zaro bog’liqligini va o’zaro shartlarini aniqlaydi. Ijtimoiy pedagog faoliyati tuzilmasi quyidagi komponentlardan iborat: subyekt (faoliyatni amalga oshiruvchi tomon), obyekt (faoliyat yo’naltirilgan tomon), maqsad (faoliyat orqali nimaga intilinadi), vazifa (faoliyat orqali nimalar amalga oshiriladi), vositalar (faoliyat qaysi usul yoki texnika yordamida amalga oshiriladi).

Ijtimoiy pedagog faoliyatining obyekti jamiyatga moslashish jarayonidagi yordamga muhtoj bolalar va yoshlardir. Bu toifaga intellektual, ruxiy, ijtimoiy nuqsoni bor bolalar, shuningdek, jismoniy, ruxiy yoki aqliy shakllanishi buzilgan bolalarning katta qismi (ko’zi ojiz, kar—soqov, aqliy ojiz va bolalar serebral falajligiga chalinganlar) kiritiladi. Ular jamiyatning alohida mehriga muhtojdir.

Agar bolaning jamiyatdagi shakllanishi normal kechsa unda ijtimoiy pedagog yordami zarur bo'lmaydi. Bordiyu, ota-onalar va maktab uning shakllanishi, tarbiyalanishi va ta'lim olishini ta'minlay olmasa u holda ijtimoiy pedagog xizmati kerak bo'ladi.

Ijtimoiy pedagog faoliyatining maqsadi bolaning ruhiy sog'ligi va xavfsizligi uchun sharoit yaratish, uning oilasi, maktabi va atrofidagi unga salbiy ta'sir kursatuvchi omillardan ogohlantiruvchi va ularni yengib o'tuvchi ijtimoiy, huquqiy, ruxiy, tibbiy va pedagogik muammolarini kompleks ravishda hal etish maqsadida turli mutaxassislar (ruxiyatshunoslar, tibbiy xodimlar, ijtimoiy xodimlar va yuristlar) hamda ma'muriy organlar va idoralarning (ta'lim, sog'likni saqlash, ijtimoiy himoya sohasidagi) mazkur masalaga yo'naltirilgan sa'y-harakatlarni muvofiqlashtirib turishda vositachi bo'la olishi kerak.

Ijtimoiy pedagog faoliyatidagi muhim yo'nalish — bu BMT Konvensiyasida e'lon qilingan bolaning yashashga, sog'lom shakllanishiga, ta'lim olishiga, o'z qarashlarini erkin ifoda etishiga, kamsitishning har qanday turidan himoyalashga qaratilagan huquqlarini himoya qilishdir.

Ijtimoiy pedagog faoliyatidagi yana bir yo'nalish-bu bolani shakllanishiga ko'maklashuvchi ijtimoiy loyihalar va dasturlar, xususiy tashabbuslarni ishlab chiqishda ishtirok etishdir.

Shunday qilib, ijtimoiy pedagog faoliyatiga quyidagi vazifalarni biriktirish mumkin: .

- tashxis quyish;
- [bashoratchilik](#);
- vositachilik;
- to'g'irlash va qayta tiklash;
- himoyalash;
- ogohlantirish va profilaktika;
- evristika (ijodiy fikrlash).

Pedagogning barcha faoliyati vositalar yordamida amalga oshiriladi. Bular safiga maqsadga erishishda zarur bo'ladigan barcha harakatlar, predmetlar, quollar, usullar va texnologiyalarni kiritish mumkin.

Shu kunga qadar ijtimoiy pedagogning vazifasini bir-biri bilan bog'liq bo'lgan tibbiyat, sport, madaniyat tashkilotlari xodimlariga yuklatilib kelindi. Natijada jamiyat a'zolari ongida bolalar tarbiyasi bilan faqat o'qituvchi va ota-onalar shug'ullanishi lozim degan fikr o'rashib qoldi.

Yurtimizda ijtimoiy ishni kasb darajasiga olib chiqish hamda bu borada mutaxassis kadrlarni tayyorlash jamiyatda tarbiyaviy muammolarni hal etishda insonlarning yashash sharoitini yaxshilashda, eng asosiysi-har bir jamiyat a'zosini ijtimoiy himoyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ijtimoiy pedagog oldiga qo'yiladigan kasbiy talablar:

- ijtimoiy axborot berish, ya'ni bolalarga beriladigan ijtimoiy yordam va xizmat ko'rsatish spektrlari haqida ma'lumot berish;
- ijtimoiy-huquqiy yordam, ya'ni bolalarga, jamiyat a'zolariga o'z haq - huquqlarini anglashga yordam berish;
- ijtimoiy-reabilitatsion xizmat, ya'ni insonlarning ma'naviy – axloqiy, emotsional, ruhiy holatlarinn taklashga yordam berish;
- ijtimoiy-iqtisodiy yordam, ya'ni qo'llanma, konpensatsiya, nafaqalarni olishda hamkorlik qilish bolalar uylari bitiruvchilariga, yetimlarga moddiy yordam berishni tashkillashtirish;
- ijtimoiy-tibbiy yordam berish, ya'ni bolalarni ijtimoiy patranaj qilish, voyaga yetmaganlar orasida kashandachilik, alkogolizm kabi holatlarni profilaktika va reabilitatsiya qilish;
- ijtimoiy-psixologik, ya'ni oilada, turli mikrojamiyatda sog'lom muhitni tashkil etishga yordam berish;
- ijtimoiy-pedagogik, ya'ni bolalarni tarbiyalashda ota-onalarning o'z haq - huquqlarini anglash, ularga sharoitlar yaratish, tarbiyachi va bola orasidagi ziddiyatlarni hal etish kabilardan iborat.

Ijtimoiy pedagog bu vazifalarni amalga oshirish uchun, albatta quyidagi sohalarda o'z bilimlarini boyitib borishi shart:

- milliy istiqlol g'oyasi huquqiy-me'yoriy baza (qarorlar, aktlar, buyruqlar, ko'rsatmalar, tashkilot tuzulmalari va h.k.),
- ijtimoiy pedagogikaning tarixi va nazariysi;
- yosh davrlar psixologiyasi;
- sotsiologiya;
- ijtimoiy-pedagogik ishlarni olib borish hamda rejalahirish metodlari va h.k.

Shuningdek, ijtimoiy pedagogdan quyidagi malaka va ko'nikmalarga ega bo'lishi talab etiladi:

- analistik, ya'ni sotsiumda ro'y berayotgan jarayonlarni nazariy tahlil etish, bolaning ruhiy olamini anglay bilish, ularning muammolarini hal etishga doir hamkorlik faoliyatini tashkil etish;
- prognostik, ya'ni tashkil etilgan ijtimoiy-pedagogik faoliyat bo'yicha bolaning muammolarini hal etish yo'llarini bashorat qilish;
- loyiqlash, ya'ni ijtimoiy-pedagogik faoliyatning mazmunini aniqlash va rejalahshtirish;
- refleksiv, ya'ni ijtimoiy pedagog o'zining faoliyatini tahlil etib borishi;
- kommunikativ, ya'ni ijtimoiy pedagogning insonlararo muloqot madaniyatini egallashi. U boshqalar fikrini eshitma bilish, muloqotga kirisha bilish, faktlar to'plash singari faoliyatlarni o'z ichiga oladi.
- Kasbiy status-bu kasb kodeksida ko'rsatilib, subyektning insonlararo munosabatlar tizimidagi kasbiy holati, huquqlari, majburiyatlaridir.

Ijtimoiy pedagog asosan xalq ommasi bilan ishlaydigan shaxsdir. U o'z faoliyati jarayonida turli xarakterdagi insonlar bilan muloqotga kirishishiga to'qri keladi. Bu vaziyatda ular bilan turli xil ziddiyatlarga bormaslik, ularning har birining ko'ngliga, yuragiga kirib borish uchun sifat va fazilatlarga ega bo'lishi talab etiladi: empatiya (dunyonи boshqalarning ko'zi bilan ko'rish, tushuna bilish), xayrixohlik, ezgulik, to'qrilik, ochiq ko'ngillik, aniq mo'ljal olish,

samimiylilik, kommunikabellik (boshqalar bilan chiqisha bilish). Ijtimoiy pedagogning ahloqiy majburiyatlari ijtimoiy pedagog o'z mijozlarining qalbiga kirib borishida uning ahloqiy majburiyatlari muhim ahamiyat kasb etadi. Ijtimoiy pedagogning ahloqiy majburiyatlari o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Bular: o'z mijozlariga nisbatan axloqiy muloqotda bo'lismay, ya'ni ularning haq huquqlari va imtiyozlarini birinchi darajali deb bilish;

- ular bilan muloqotga kirishishda ahloq me'yordarga amal qilish (hurmat, haqqoniyat, hushmuomilalik, alohida etibor va h.k.)
- rahbarlar yoki yetakchi tashkilotlarga nisbatan yetuk majburiyatlar
- o'z kasbi oldidagi axloq majburiyatlar, ya'ni o'z kasbining mazmuni va mohiyatini anglash, mas'uliyatni his etish, faollik ko'rsatish va h.k.

Ijtimoiy pedagogning kasbiy faoliyati subyekti sifatida: shaxsiy tavsif va kasbiy omilkorligidir.

Ijtimoiy pedagogning shaxsiy tavsifnomasi ko`rib chiqiladigan bo`lsa, avvalo mazkur faoliyat subyektini - o'z sohasini mukammal biluvchi mutaxassisni belgilab olishimiz zarur bo'ladi. U bola haqidagi ijtimoiy va boshqa qiyinchiliklarni chuqur farqlay biladi va unga yordamga kela oladi. U umum nazariy va maxsus bilimlarga, malaka va ko`nikmalarga, ma'lum darajadagi qobiliyatlarga ega bo'ladi.

Kundalik hayotda biz kasb inson ongida, uning xatti-harakatlarida va dunyoqarashida o'ziga xos iz qoldirishiga guvoh bo`lamiz. Psixologiyada bu narsa “kasbiy mentallik” deb ataladi. Mentallik - bu insonning olamga munosabatini va uning kundalik xatti-harakatlarini aks ettiruvchi ma'lum ijtimoiy-ruxiy qarashlar va qadriyatlar majmuidir. Mentallik o'zida individning ijtimoiy va madaniy tajribasini mujassamlashtirgan bo'lib, insonning qaysi ijtimoiy qatlama, yoshga, jinsga, millatga va kasbga mansubligi bilan aniqlanadi.

Psixologik tadqiqotlarda kasbiy mentallik ma'lum bir kasb egalariga xos bo'lgan xususiyat sifatida e'tirof etiladi.

Hozirgi pedagogning muhim vazifalaridan biri milliy istiqlol g'oyasini bolalar va bolalar ongida shakllantirish tadbirlari va mexanizmlarini ishlab chiqib,

uni amalga oshirishdan iboratdir. Oliy ta’lim muassasalarida pedagoglar ikki bosqichda o’qitiladi. Birinchi bosqichda, ya’ni bakalavriyatda mutaxassis o’zi tanlagan soha bo'yicha 4 yil davomida ta'lim oladi. Ikkinci bosqich magistraturada davom ettiriladi. “Ijtimoiy pedagog” sohasiga tegishli barcha mutaxassilarning xam umumiy o’ziga xos xususiyatlari mavjud bo’ladi. Bir qator tadqiqotchilar ularning shaxsiy tavsifnomasi sifatida individual-ruxiy xususiyatlar va maxsus qobiliyatlarni ko’rsatmoqda.

Kuzatuvchanlik, murakkab vaziyatda tez yo’lga tusha bilish, fahm-farosat bilan sezalish, o’zini boshqa odam o’rniga qo’ya olish va uning hissiyotlarini tushuna bilish, o’zini boshqara olish va refleksiya (fikr yuritib uni taxlil qilish) maxsus qobiliyatlar jumlasidandir. Shuningdek, ijtimoiy pedagog dilkashlik, odamlar bilan ishlay olish, qiziqqonlik, o’z fikrini o’tkaza olish, bahsli vaziyatlarda yo’l topa bilish, tirishqoqlik kabi ijtimoiy sohaning barcha xodimlariga xos xususiyatlarga ham ega bo’lmog`i darkor.

Xorijiy tadqiqotchilar ham pedagogning individual-ruxiy xususiyatlari to’g`risida o’z fikrlarini bildirganlar. Masalan, Buyuk Britaniyalik olimlar bunday xususiyatlar qatoriga yuqori darajadagi aqliy salohiyatga egalik, tartiblilik va o’z-o’zini boshqara bilish, jismonan kuchlilik, odamlarga qiyin vaziyatlarda yordam bera olish, chidamlilik, sezgirlik kabilarni kiritadilar.

AQSHning mashxur psixologlaridan sanalgan J.Xoland o’zining “o’ziga yo’naltirilgan qidiruv” metodikasida ijtimoiy soha kasbi egasiga xos xususiyatlarni ko’rsatgan. Bular: realistik (haqqoniylilik), tadqiqotchilik, artistlik, ijtimoiy, tadbirkorlik, konventsional xususiyatlardir. U ijtimoiy pedagogga xos insonparvarlik, ideallik, mas’uliyatlilik, axloqlilik, xushmuomalalik, iliqlik, odoblilik, o’zgalarni do’st tuta olish kabi xususiyatlarni ham ko’rsatadi.

Ijtimoiy pedagog kasbi insonlar o’rtasidagi munosabatlar tizimida faoliyat yurituvchi ko’pqirrali soha bo’lib, pedagogning qaysi ishda ishlashidan qat’iy nazar odamlar bilan va avvalo bolalar bilan ishlashga yo’naltirilganligidadir. Muloqot jarayonida pedagog ko’plab ruxiy zo’riqish va charkhojni o’zida sinashiga to’gri keladi. Shu bois uning asab tizimi ham mustahkam bo’lishi

darkor. Bu narsa unga ijtimoiy-pedagogik, ruxiy-terapeutik jarayonlarda emotsional qiyinchiliklar bilan to'qnashuvida yordam beradi.

Ijtimoiy pedagogga xos yana bir xarakter xususiyati, bu "Men — obrazidir" Bu narsa pedagogning o'ziga nisbatan ijobiy munosabatda bo'lishini hamda boshqalar tomonidan o'ziga yuqori baxo berilishini ifodalaydi. Mazkur xarakter pedagogga boshqa odamlar bilan erkin muloqot qilish va ularni oson qabul qilish imkonini beradi.

Ijtimoiy pedagogning quyidagi shaxsiy fazilatlarini alohida ajratishimiz mumkin:

- Insoniylik xususiyatlari (mehribonlik, boshqalar manfaatini ustun qo'yish, o'z shaxsiy qadr-qimmati hissi)
- Ruxiy barqarorlik, yuqori darajadagi hissiy va irodaviy xususiyatlar)
- Ruxiy taxlilchilik xususiyatlari (o'zini idora qila olish, o'ziga tanqidiy qarash, o'zini baxolay olish)
- ruxiy-pedagogik xususiyatlar (kirishuvchanlik, gapga chechanlik.)

Yuqorida keltirilgan xususiyatlar bilan tanishar ekanmiz, har qanday odam ham ijtimoiy-pedagogik faoliyatni olib borish qobiliyatiga ega bo'lavermasligiga ishonch hosil qilamiz.

Har bir pedagogning kasbiy omilkorligi, ya'ni uning o'z faoliyatini olib borishga amaliy va nazariy tomondan tayyorligi me'yoriy-xuquqiy xujjalr yordamida tartibga solinadi. Mazkur xujjalr o'z ichiga mutaxassis-pedagogning kasbiy majburiyatlarini, mehnat tavsifnomasini, bilim va malakasini oladi.

Ijtimoiy ish – axolining ijtimoiy himoyalanmagan qatlamlariga yordam ko`rsatish hisoblanadi. Ijtimoiy ishlarning obyekti inson hisoblanadi, lekin hamma emas, balki faqatgina muammolari bo`lganlari (ekologik, ijtimoiy, texnogen, millatlararo keskin o'zgarishlar, buzilishlar natijasida) yoki sog`lom bo`limgan, jismoniy yoki psixik nuqsonlari bo`lganlar hisoblanadi.

"Kasbiy majburiyatlar" - Bolalarni ijtimoiy himoya, qo`llab-quvvatlash hamda bu borada xizmat ko`rsatuvchi muassasalar to'g`risida zarur axborotlar bilan ta'minlanadi.

- Inson va bola huquqlarini himoya qilishga qaratilgan, turli toifadagi bolalarning haq-huquqlarini ta'minlashga, bolalarni huquqiy jihatdan tarbiyalashga yo'naltirilgan ijtimoiy-huquqiy yordamni ko`rsatilishi;

- Ruxiy va emotsiyal yordamga muxtoj bolalarga ijtimoiy-reabilitatsion yordam ko`rsatish;

- Kam ta'miilangan oilalarda yashovchi bolalarning maishiy hayotini yaxshilash maqsadida ularga ijtimoiy yordam kursatish;

- Bemor bolalarga zarur tibbiy—ijtimoiy yordamni ko`rsatish. Alkogolizm, giyohvandlik bilan shug`ullanuvchi voyaga yetmaganlarni davolash.

Ijtimoiy pedagogdan quyidgicha kasbiy bilimlar: o'z faoliyatining me`yoriy-huquqiy asosini (qonunlar, farmonlar, qarorlar va yuriqnomalar), ijtimoiy pedagogika nazariyasi va tarixini, turli muhitlarda turli toifa bolalari bilan ishlash metodikasi va texnologiyasini, bola shaxsini, uning jismoniy, ma'naviy va ijtimoiy shakllanishini o`rganuvchi psixologiyani, odamlarning uyushma va guruxlari (Oila, maktab va mehnat jamoasi)ni o`rganuvchi sotsiologiyani; o'z kasbiy tadqiqot faoliyatini ijtimoiy boshqarish va rejalashtirish metodini bilish talab etiladi.

Ijtimoiy pedagogdan quyidagi kasbiy malakalar: taxlil qila olish qobiliyati talab etiladi. Bolaning shakllanishida unga muhitning salbiy va ijobiy ta'sir ko`rsatuvchi harakatlarini aniqlab taxlil qila bilish lozim.

Bashoratchilik qobiliyati: faoliyat olib borish usullarini belgilab olib uni aniq maqsad tomon yo'naltirish, duch kelishi mukin bo'lган muammolarni oldindan ko`ra bilish va hisobga olib, vaqt ni to'g`ri taqsimlashdir.

Loyixalashtira bilish-faoliyatni aniq bir loyixa asosida, tarbiyalanuvchining shart-sharoitlari va mavjud muhit talablarini hisobga olib, aniq bir tartibda olib borish, o'z faoliyatining har bir bosqichida ijobiy va salbiy natijalarini to'g'ri taxlil qila olish; kirishuvchanlik— ya'ni bolani eshitish va tinglay olish, bola bilan muloqot jarayonini osonlashtirish, bola muammosini to'g'ri tushunish uchuy zarur axborot va ma'lumotlarni to`plash lozim.

Ijtimoiy ish bilan har kim ham shug'ullana olmaydi. Ijtimoiy pedagog turli xil xarakterdagi insonlar bilan muloqotda bo'ladi. Bu insonlar o'zlarining muammolari bilan, albatta, ijtimoiy pedagog shaxsiga qarshi ta'sir ko'rsatadi. Mijozlarga yordam beruvchi mutaxassisdan esa ularga o'z ta'sirini o'tkaza bilishi talab etiladi. Bu muloqot negativ va pozitiv bo'lishi mumkin. Ijtimoiy pedagogning vazifasi birinchidan, negativ ta'sirga qarshi tura olishi, ikkinchidan madaniy empatiyani amalga oshirgan holda vaziyatdan chiqib ketish talab etiladi. Bunga mijozga ta'sir o'tkazish, ishontirish, singdirish, xissiy zararsizlantirish kabi metodlardan foydalilanildi.

Yoshlar ishi bo'yicha idoralarda mazkur lavozim 8 xil muassasada ro`yxatga kiritilgan. Bular: bolalar klublari, bolalar ijodiy [markazlari](#), yoshlar yotoqxonasi, o`smirlar dam olish maskanlari, yoshlar ta'lim markazlari, kasbiy yo'naltirish markazlari, bandlik markazlari, bolalar va yoshlar mehnat birjalaridir.

Ta'lim sohasida esa pedagog 6 xil muassasada ro`yxatiga kiritilgan. Bular: maktabgacha tarbiya tashkilotlari, umumta'lim muassalari, umumta'lim internatlari, boquvchisini yo`qotgan bolalar uchun umumta'lim idoralari, maxsus ta'lim muassasalari, boshlang`ich kasbiy ta'lim muassasalaridir.

Ijtimoiy pedagog lavozimi mazkur ikki idorada joriy etilgan bo`lsada, aslida ularga bo'lgan talab yana ham kengroq. Bunday lavozim deyarli barcha ijtimoiy sohalarda joriy etilgan.

Ijtimoiy pedagogik ishlar faol g'oyaviy – ahloqiy imkoniyatlarga ega. U shaxs xulqida paydo bo'lgan salbiy elementlarga qarshi kurashda muhim omilga aylanadi. U ijtimoiy fikrni shakllantirish yo`li bilan jamoada sog`lom ma'naviy – axloqiy muhit hosil qilishga ta'sir ko'rsatadi, ilg`or ijtimoiy qadriyatlarni mustahkamlaydi, shaxs qadr – qimmatini ta'minlaydi, qonunni hurmat qilishga o'rgatadi. Bu ayniqla bugungi kunda, jamiyat ma'naviy yangilanish jarayonini boshidan kechirayotgan bir davrda muhim aqamiyatga ega.

Tarbiyaviy faoliyatning muhim zaxiralaridan yana biri – ommaviy targ`ibot bilan bogliq bo'lib, g'oyaviy – tarbiyaviy ishlarning barcha shakllarida g`ayrat va tashabbus talab etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. D.Ro`ziyeva “Ijtimoiy pedagogika” o`quv qo`llanma 2015 y.
2. N.Egamberdiyeva “Ijtimoiy pedagogika” o`quv qo`llanma 2009 y.
3. Chorieva, D. (2020). DIAGNOSTICS AS A BRANCH OF PSYCHOLOGICAL AND PEDAGOGICAL KNOWLEDGE AND TYPE OF RESEARCH ACTIVITY OF A TEACHER. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol, 8(3).
4. Choriyeva, D. (2022). TARBIYACHINING PEDAGOGIK MAHORATINI OSHIRISHDA PEDAGOGIK TEXNIKANING ROLI. Zamonaviy dunyoda pedagogika va psixologiya: Nazariy va amaliy izlanishlar, 1(24), 101-103.
5. Чориева, Д. А. (2021). МЕТОДЫ И ПРИЕМЫ РАБОТЫ С АГРЕССИВНЫМИ ДЕТЬМИ. In Человек в современном мире: пространство и возможности для личностного роста (pp. 152-161).
6. Чориева, Д. А. (2019). Педагогическая диагностика в условиях дошкольного образования. Актуальные проблемы современного образования: опыт и инновации, 86.
7. Чориева, Д. А., & Ражабова, Г. Ф. (2022). ЗНАЧЕНИЕ ПЕДАГОГИЧЕСКО-ПСИХОЛОГИЧЕСКОГО ДИАГНОСТИЧЕСКОГО СРЕДСТВА В ДОШКОЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ. Results of National Scientific Research International Journal, 1(6), 327-343.
8. Чориева, Д. А. (2022). ПЕДАГОГИК-ПСИХОЛОГИК ДИАГНОСТИКА ФАОЛИЯТИ БИЛАН ШУФУЛАНУВЧИ ШАХСГА ҚЎЙИЛАДИГАН ТАЛАБЛАР: <https://doi.org/10.53885/edinres.2022.9.09.014> Чориева Дурдона Анваровна Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети Мактабгача таълим факультети Мактабгача таълим психологияси ва педагогикаси кафедраси педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), в. б. доценти. Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал, (9), 99-102.

9. X.Meliyev, O.Jamoldinova "Tarbiyachining kasbiy kompetenti va mahorati" O'quv qo'llanma 2021 y.
10. Chorieva, D. A. BO'LAJAK TARBIYACHILARNING KASBIY MAHORATLARINI OSHIRISH YO'LLARI. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI, 385.
11. Anvarovna, C. D. (2024). MANAGEMENT OF INNOVATIVE PROCESSES IN PRESCHOOL EDUCATION. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 37(6), 58-62.
12. Anvarovna, C. D. (2024). MAKTABGACHA TA'LIMDA PEDAGOGIK DIAGNOSTIKA VA KORREKSIYALASHNING O 'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 37(6), 48-53.
13. Anvarovna, C. D. (2024). TA'LIM-TARBIYA JARAYONIDA INNOVATION PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK DIAGNOSTIK SAMARALI METODLARDAN FOYDALANISH. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 37(6), 54-57.
14. Choriyeva, D., & Ahmadova, S. (2023). Maktabgacha ta'lism tashkilotlarida ertaklarning ahamiyati. Maktabgacha va maktab ta'limi jurnali, 1(2-3).
15. Durdona, C. (2023, December). KREATIVLIK ORQALI BOLALARING QOBILYATLARINI OSHIRISH. In " Conference on Universal Science Research 2023" (Vol. 1, No. 12, pp. 302-305).
16. Durdona, C. (2023). BOLALARDA KREATIVLIK QOBILYATINI RIVOJLANTIRISH. TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN, 1(5), 265-270.
17. Choriyeva, D. (2023). OILA VA MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMIDA AMALGA OSHIRILADIGAN IJTIMOIY VAZIFALAR. Talqin va tadqiqotlar, 1(32). DURDONA, C., & SHAHNOZA, K. (2023). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARING KREATIVLIGINI OSHIRISHDA TASVIRIY

FAOLIYATNING O'RNI. Journal of Science-Innovative Research in
Uzbekistan, 1(7), 191-196.